



HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARIDA NURNING BADIY  
TALQINI

*Navbahor Soliyeva*

*FarDU, Filologiya fakulteti o'zbek tili  
yo'nalishi 4-kurs talabasi*

*Abiljon Abduraxmonov*

*Filologiya fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya:** *Maqolada nurning qanday badiiy funktsiya bajarishi Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi she'rlar tahlili orqali ochib berilgan.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *nur, badiiy tahlil, "Saylanma", obraz.*

**Annotation:** *The article reveals the artistic function of light through the analysis of poems in the works of Halima Khudoyberdiyeva.*

**Keywords:** *light, artistic analysis, "Saylanma", image.*

**Аннотация:** *В статье раскрывается художественная функция света на основе анализа стихотворений в творчестве Халимы Худойбердиевой.*

**Ключевые слова:** *свет, художественный анализ, «Сайланма», образ.*

Nurning inson uchun nafaqat moddiy, balki manaviy yoritqich va quvvat manbai sifatidagi badiiy talqinlari adabiyotda shakllanib kelgan. Nur (arabcha: النور) — yorug'lik, yog'du, hidoyat va bilim ramzi. Islomda "issiqsiz yorug'lik" (oy nuri) va Allohning hidoyati ma'nosini anglatadi, Qur'onda Alloh "osmonlar va yerning nuri" deb ta'riflangan. Fizikada esa nurlanish energiyasining ingichka tola tarzida tarqalishi, yorug'lik manбайдan chiqadigan yog'du chizig'i hisoblanadi. Nurning lirik asardagi obrazlashgan badiiy talqinlanishi ikki korinishda kuzatilishi keltiriladi: 1) nurning bilvosita badiiy talqin etilishi (adolat, marifat, muhabbat, mehr kabi abstrakt obraz sifatida); 2) nurning bevosita badiiy talqin etilishi (quyosh, oy, yulduz kabilarning muayyan obrazlari korinishida).<sup>1</sup>Badiiy adabiyotda nur timsoli qadim

<sup>1</sup> Абдурахмонов А.А. Нур ва сурур. Монография. – Фарғона: Classic, 2022. – 84 б.



zamonlardan buyon muhim poetik obrazlardan biri sifatida qo'llanib keladi. Nur ko'pincha ezgulik, poklik, umid, haqiqat va ma'naviy yuksalish ramzi sifatida talqin qilinadi. Adabiy asarlarda ushbu timsol inson qalbining yorug' tomonlarini, ruhiy poklanish jarayonini hamda hayotga bo'lgan ishonchni ifodalashda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'plab shoir va yozuvchilar o'z asarlarida nur obrazidan inson ruhiyati, hayotiy qarashlar hamda ma'naviy qadriyatlarni ifodalashda samarali foydalanib kelganlar. O'tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi", Oybekning "Zulmat ichra nur" kabi asarlarida nurning turli talqinlari adabiyot bag'riga singdirib yuborilgan. Nasriy asarlardan tashqari ko'plab shoir va shoirlar she'rlarida nur turli poetik vazifa bajargan. Jumladan Halima Hudoyberdiyeva ijodida ham ushbu timsol juda ko'p uchraydi. Uning she'rlarida bu obraz orqali inson qalbining eng nozik kechinmalarini, umid va orzularini badiiy ifoda etiladi.

Siz bilan qaytadan ko'rishmasmiz biz,

Biz yurgan so'qmoqni o't-o'lan bosdi.

Yulduzday ikki yon uchdik ikkimiz,

Nurga g'arq bo'lganda yulduzlar osti

Yulduz ham tabiiy nur manbalaridan sifatida lirik asarlarda muayyan badiiyestetik funktsiya bajaradi. Yulduz nur manbai bo'lsa-da zaminni yoritishga qodir emasligi unga munosabatda ham o'z ifodasini topgan. Jajjigina oynning bajargan beminnat xizmatini, aslida qanchalar ulkan bo'lmasinlar, olisdaliklari tufayli yulduzlar bajara olmasligiga asoslangan lirik munosabat shakllangan. Lirikada yulduzning quyidagi jihatlarni ifodalashi faol uchraydi:

a) tanholikdagi lirik qahramonning ruhiy holati, kechinmalarini ifodalaydi;

b) yiroqdagi orzu, umid timsolida aks etib, shoir qarashlarining g'oyaviy-estetik xususiyatlarini ochib berishda asosiy omil bo'ladi;

d) lirik qahramon o'zligining ifodasi..

Shoiraning yuqoridagi misralarida yulduz obrazi tanholikdagi lirik qahramonlarni ruhiy holatini, ya'ni ikki oshiq ayriliqda kun kechirayotganlarini ifodalagan.



Nur hayot faoliyatini ta'minlovchi koinotdan keluvchi qandaydir neon massa, sifatida ifodalanishi ijodkor tomonidan nurning ongga sig'mas hodisa ekanligi talqinlandi:

Bu oqshom olamni nurga g'arq etdi,  
Tutash yuraklarni, ammo, tark etdi.<sup>2</sup>

Misolda keltirilganidek, zamonaviy o'zbek lirikasi shakllanishining dastlabki davridan nurning moddiy xususiyatlari birlamchi ahamiyat kasb etgani holda badiiy talqin markaziga tortilgan. She'rda shoironing lirik kechinmalari tabiiy nur misolida oydinlashtirib berilgan.

Shoironing "Kichik quvonch-u shonlarim"<sup>3</sup> nomli she'rida ham ziyo , nur va uning bevosita badiiy talqinlari bo'lgan quyosh va oy obrazlari shoironing hissiy kechinmalarini misralarga singdirib yuborilgan.

Kimdir quyosh yuzin to'ssa,  
Armonlarga so'lgan men.  
Kimdir giyoh bo'yin cho'zsa,  
Ko'm-ko'k giyoh bo'lgan men.

Misralarida quyosh lirik qahramonga hayot beruvchi bir kuch manbai sifatida qaraladi. Shu bilan birgalikda, lirik qahramon ruhiy holati quyoshga chambarchas bog'langan.

Bu charx urgan kuylarim goh,  
Qushlarni uyg'otdilar.  
Goh g'am bilan chektirib oh,  
To'lin oydek botdilar.

Sharq she'riyati an'nasiga ko'ra o'zbek lirikasida ham oy hijron, tushkunlik, yolg'izlikda najot, umid hadya etuvchi sifatida obrazlashgan. U lirik qahramonga mushkul holatida doimo yordam beruvchi: atrofidan qurshab kelayotgan zulmatdan himoya qiluvchi, ko'ngliga umid beruvchi, tongni kutishda sabr-bardoshli bo'lishga undovchi sifatida gavdalantiriladi. Shuning uchun oyga

<sup>2</sup> Худойбердиева Х. Сайланма— Тошкент: Шарк, 2000. — 54 б.

<sup>3</sup> Худойбердиева Х. Сайланма— Тошкент: Шарк, 2000. — 45 б.



murojaat ko‘pincha lirik qahramonning tanholik, ayriliq bilan bog‘liq holatlarida namoyon bo‘ladigan hodisa sifatida shakllanib kelgan. Aslida to‘lin oy

mukammallik ifodasi. Ammo shoiraning badiiy maqsadi boshqa. Shoiraning muhabbat to‘la misralari avval portlab keyin esa so‘nganini ifodalamoqda. Bu yerda oy go‘zallik va iztirobning uyg‘un timsoli sifatida namoyon bo‘lgan.

Sen meni qalbingta chorlaysan, <sup>4</sup>

Kelishib olaylik.

Ko‘p xushro‘y ko‘rinar qalbingdagi bog‘,

Unda umid yanglig‘ yonar bir chiroq.

Miltillagan chiroq nurlariga

Jim tikilaman, huzur qilaman.

Omonat bo‘lmasin, ishqilib, u chiroq,

Sinamoq uchunmi yoki hazillashib...

Yo titroq shu‘ladan kelgandami g‘ashim,

O‘chirib qo‘ymayin tag‘in uni men,

Bog‘ing xushro‘y, ammo o‘chmasmi ko‘kligi,

She‘rda nurning bir yo‘la bir qancha ko‘rinishlarda kelganligini ko‘ramiz.

Ya‘ni nur – motiv, nur – obraz, nur – ramz. Bunda nurning sun‘iy, koinot (tabiiy) hamda ma‘naviy ko‘rinishlari shoirning nur motiviga asoslangan ijodiy g‘oyasini yoritishiga mujassam uyg‘unlashib xizmat qiladi. Yuqoridagi misralarda sun‘iy nur bo‘lgan chiroq obrazi oddiy obraz emas, bir ramz sifatida keltirgan. Avvalo, chiroq – bu oddiy yorug‘lik manbai emas, balki qalbning ichki nurini anglatadi. “Qalbingdagi bog‘” ichida “umid yanglig‘ yonar bir chiroq” tarzida berilishi uning umid, ishonch va muhabbat ramzi ekanini ko‘rsatadi. Bu yerda chiroq – sevgilining qalbida yashayotgan samimiy tuyg‘ularning timsoli bo‘lib, u hali so‘nmagan, lekin nozik va himoyaga muhtoj. Sun‘iy nur manbai obrazlashtirilib, tabiiy funksiyasidan xoslanib subyektga qiyoslanadi. Tabiiy yonish jarayoni ma‘naviy hodisaga ko‘chadi. Ya‘ni chiroqning “miltillashi” tasodifiy emas. Bu holat orqali shoir tuyg‘ularning

<sup>4</sup> Худойбердиева Х. Сайланма— Тошкент: Шарк, 2000. — 30 б.



beqarorligi, ichki ikkilanish va noaniqlikni ifodalaydi. Ya'ni, bu muhabbat hali mustahkam emas, u sinovda, u shubha va xavotirlar orasida yashamoqda. Lirik qahramonning “jim tikilaman, huzur qilaman” deyishi esa shu nurning o'ziga xos sehrini, uning qalbgga berayotgan taskinini ochadi. Chiroqqa singdirilgan chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyat keyingi misrada yanada ravshanlashadi. “Omonat bo'lmasin, ishqilib, u chiroq” misrasida lirik qahramon bu tuyg'ular vaqtinchalik emasligidan, ya'ni soxta yoki o'tkinchi bo'lib qolishidan qo'rqadi. Bu yerda chiroq – sinovdan o'tishi kerak bo'lgan ishq ramzi sifatida talqin qilinadi, shu bilan birgalikda xavotir motivi ham yetakchilik qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida “nur” obrazi ko'p qatlamli, semantik jihatdan boy va badiiy-falsafiy yuklamaga ega timsol sifatida namoyon bo'ladi. Shoira ijodida nur nafaqat estetik bezak yoki tasviriy vosita, balki markaziy konseptual kategoriya darajasiga ko'tarilib, inson ruhiyati, ma'naviy olami va borliq haqidagi tasavvurlarni ifodalashda muhim funksiyani bajaradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонов А.А. Нур ва сурур. Монография. – Фарғона: Classic, 2022. – 84 б.
2. Худойбердиева Х. Сайланма— Тошкент: Шарк, 2000. — 45 -54 б.
3. <https://www.ziyouz.com/>